

Date: 23rd January-2026

ADABIYOT DARSLARIDA JAHON OTIN UVAYSIY LIRIKASINI O'QITISH

Vafoqulova Go'zal Ochilovna

(Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi)

Annotatsiya: Maqolada Jahon Otin Uvaysiy lirikasining tarbiyaviy ahamiyati va shoira ijodini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: «Shahzoda Hasan», «Shahzoda Husan», liroepik asar, ga'azal, muxammas, musaddas, murabba, chiston, doston.

Uvaysiy to'rt devon tuzganligi ma'lum. Lekin bu devonlarning asl qo'lyozmalari topilmagan. Uvaysiy mumtoz o'zbek she'riyatining barcha janrlarida ijod qilgan. Navoiy, Fuzuliy va boshqaning asarlariga muxammaslar bog'lagan. Shoiraning adabiy merosida 269 g'azal, 29 muxammas, 55 musaddas, 1 murabba, chiston, 3 doston, tugallanmagan bir manzuma bor. Uvaysiy o'z asarlarida yuksak odamiylikni, shu odamiylikni qalb to'rida avaylovchi vafodor yorni ulug'laydi, uni Quyosh bilan qiyos qiladi. Uvaysiy hayotlik davridayoq nafis lirikasi bilan mashhur bo'lgan va zamondoshlarining e'tiborini qozongan. Lirik she'rlaridan tashqari, uning «Shahzoda Hasan», «Shahzoda Husan» kabi liroepik asarlari va «Voqeoti Muhammad Alixon» kabi tarixiy dostonlari mavjud. Shoiraning liroepik dostonlari islom tarixi bilan bog'liq voqealar asosida yaratilgan.

Oltmish yildan koproq umr ko'rgan Uvaysiydan bizga kattagina adabiy meros yetib kelgan. Uvaysiyning Navoiy, Fuzuliy gazallariga bog'lagan ko'plab muxammaslari va naziralari, Bedil she'rlariga izdoshligi shoiraning poetik balog'atidan dalolat beradi.

Zaboningni keturgil ey shakarlab toti guftora,

Nechukkim marhamat o'lsun necha mendek dil afgora.

Uvaysiyning lirik she'rlaridan tashqari «Shahzoda Hasan», «Shahzoda Husan» kabi liro –epik asari va «Voqeoti Muhammad Alixon» kabi tarixiy dostonlari mavjud. Shoiraning liro –epik dostonlari islom tarixi bilan bog'liq voqealar asosida yaratilgan bo'lib, bu Uvaysiy oz davrining –otini muallimasi va dinimiz tarixidan dalolat beradi. Uning zamondoshi va izdoshi shoira Dilshodi Barno o'zining Nodirabegimga bag'ishlangan «Tong mahal chiqdi haramdin turfa moh» deb boshlangan g'azalida Nodira bilan bir qatorda Uvaysiyni ham juda katta e'zoz bilan xotirlaydi:

Kim?- dedim, Nodira –dedilar ani,

Yonida Vaysiy turur olampanoh.

Har biri ming shoira o'rnidadur,

Ikkovi birla to'lur har borgoh.

Uvaysiy o'zining go'zal va maftunkor, latif g'azallari bilan nafaqat o'z davrining, balki hozirgi kunda ham muxlislar qalbiga bitmas-tuganmas zavq bag'ishlab kelmoqda



Date: 23rd January-2026

**Jahon Otin
Uvaysiy**

**1789/90-
1850**

**Marg`ilonlik, otasi
Hofiz bobo, akasi
Oxunjon hofiz**

**Qizi Quyoshxon
(Xokiy)**

**O`g`li
Muhammad
(Majnun)**


**Nevarasi
Xadicha (Azmiy)**

**Chevarasi Xoljon
(Mag`ziy)**

Ifodali o`qish

Uvaysiyning quyidagi g`azallarini o`qib, mazmunini lug`at asosida ozlashtirish:
“Uvaysiyman”, “Sog`indim”, “Ko`ngil dog` o`ldi, dog` o`ldi”, “Nozuk”,
“Mavzuning klasterli taqdimoti”





Toifalash jadvali

<i>Jahon Otin Uvaysiyning ijodi</i>		
G'azallari	Dostonlari	Chistonlari
"Uvaysiyman"	"Shahzoda Hasan"	"Anor"
"Ko'ngul dog' o'ldi"	"Shahzoda Husan"	"Yong'oq"
"Nozuk"	"Voqeoti Muhammadalixon"	"Kun va tun"
"Sog'indim"		"Qaychi"

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Adabiyot" (B.Qosimov va boshqalar) 10-sinf . Toshkent. 2004-yil.
2. B.To'xliyev "Adabiyot" (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik) Toshkent, "O'qituvchi", 2002-yil.